



Shaxlo MURZAYEVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti
E-mail: spring3003@mail.ru

TKTI professori, s.f.d O.Sirojov taqrizi asosida

TRENDS IN THE FORMATION OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article discusses the role of Uzbekistan's national cultural centers in strengthening interethnic harmony and promoting cultural exchange processes. It also analyzes the stages of formation and development of national cultural centers in the Republic of Uzbekistan, dividing them into specific historical periods.

Key words: National cultural centers, harmony, society, formation period, interethnic harmony, ethnic groups.

ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль национальных культурных центров Узбекистана в укреплении межнационального согласия и развитии процессов культурного обмена. Также проанализированы этапы формирования и развития национальных культурных центров в Республике Узбекистан, которые разделены на определённые исторические периоды.

Ключевые слова: Национальные культурные центры, согласие, общество, период формирования, межнациональное согласие, этнические группы.

O'ZBEKISTONDA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING SHAKLLANISHI TENDENSIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston milliy madaniy markazlari millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash va madaniy almashinuv jarayonlari. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi va faoliyatining taraqqiyot yo'lini quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Milliy madaniy markazlar, totuvlik, jamiyat, shakllanish davri, millatlararo totuvlik, etnik guruhlar.

Kirish. Ko'p millatli davlatlar hududiy yaxlitligi va siyosiy barqarorligini ta'minlash maqsadida, o'z tarkibidagi turli etnik guruhlarining ijtimoiy hamjihatligidan bevosita manfaatdordir. Zero, etnik xilma-xillikning muvozanatli boshqarilishi va ijtimoiy totuvlikning ta'minlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim strategik omil hisoblanadi.

Mushtarak maqsad va umuminsoniy qadriyatlarga etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lgan aholini birlashtiruvchi kuch vazifasini o'tay oladi. Shu bois, hozirgi globallashtiruv sharoitida millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyotining muhim katalizatori sifatida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, har bir O'zbekiston fuqarosining manfaatlarini aks ettiradigan, ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantiradigan g'oyaviy asoslarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz"[1] Ushbu konsepsiya xalqning identitetini aniqlashda uning nomidan ko'ra madaniy merosi, ma'naviy qadriyatlari va tarixiy ildizlariga ustuvor ahamiyat berish lozimligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish va jamiyatda ijtimoiy totuvlikni ta'minlash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raxmonov D.N. "O'zbekiston milliy madaniy markazlari (O'zMMM) nafaqat milliy o'zlikni asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va millatlararo

totuvlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[2]" deb tushuntiradi. MMMning taraqqiyoti mamlakatning madaniy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor, infratuzilmaviy yangilanishlar va xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayishi MMMning jamiyatdagi rolini yanada oshirmoqda. MMM o'z faoliyati orqali madaniy merosni asrab-avaylash, yosh avlodni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish va madaniy diplomatiyada faol ishtirok etish uchun samarali mexanizmlarni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, MMM mamlakatda turli madaniyatlar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish va hamkorlikni mustahkamlashda muhim katalizator vazifasini o'taydi. Karabayev U.X. "Turli etnik guruhlarining milliy bayramlarini, urf-odatlarini va san'at namunalari ommalashtirish orqali madaniy birdamlikni kuchaytirmoqda"[3], deb fikr bildirgan. Ushbu jarayon nafaqat mamlakat ichida, balki mintaqaviy va xalqaro hamkorlik uchun ham muhim platforma yaratmoqda. MMM o'tmishni e'zozlash bilan birga, zamonaviy voqelikka moslashib, kelgusi avlodlarga yo'naltirilgan innovasion faoliyatni amalga oshirayotgan institutlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi va faoliyatining taraqqiyot yo'lini quyidagi bosqichlarda ko'rib chiqish mumkin:

1. Shakllanish davri (1980-yillar oxiri – 1992-yil) – Milliy madaniy markazlarning shakllanish davri O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar

va aholining madaniy ehtiyojlarining ortishi bilan uzviy bog'liq. Ushbu davrda turli etnik guruhlar o'z milliy madaniyatini, tilini va an'alarini saqlab qolishga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surishni boshladilar. Shuningdek, "qayta qurish" davrining oshkoralik siyosati natijasida fuqarolarning o'z madaniy-etnik mansubligiga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Mamlakatda ko'p millatli jamiyatning mavjudligi va turli etnik guruhlarining madaniy ehtiyojlari milliy madaniy markazlarning tashkil etilishini jadallashtirdi. Turli millatlarning o'z an'alarini va madaniy qadriyatlarini asrab-avaylashga qaratilgan intilishlari jamiyatda madaniy xilma-xillikni saqlash va millatlararo totuvlikni mustahkamlashning muhim shartiga aylandi.[4]

Shakllanish davrida milliy madaniy markazlar ko'ngilli jamoat tashkilotlari sifatida paydo bo'lib, asosan muayyan etnik guruhlarining tashabbusi asosida tashkil topa boshlaydi. Ular o'z milliy tili, adabiyoti, an'anaviy san'ati va folklorini saqlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirdi. Misol uchun, qozoq, koreys, arman va yahudiy milliy madaniy markazlari o'z madaniy-etnik xususiyatlarini asrab qolishga qaratilgan ilk tashkilotlar bo'ldi. Ularning faoliyati turli madaniy tadbirlar va festivallarni tashkil etishdan iborat edi. Milliy bayramlarni nishonlash, milliy tilda ta'lim berish va an'anaviy san'at turlarini o'rganish markazlarning asosiy vazifalari sifatida namoyon bo'ldi.[5] Mazkur davrda milliy madaniy markazlarning shakllanishi davlat siyosati bilan bir qatorda jamiyatda milliy o'zlikni saqlashga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan ham xarakterlandi.

2. Institutsional rivojlanish davri (1992 – 2000-yillar) – O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy madaniy markazlarning institutsional rivojlanish davri boshlandi. Bu davr davlat tomonidan milliy madaniyatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Bu davrda milliy madaniy markazlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida mustaqil institut sifatida shakllandi va ularning faoliyati huquqiy asosga ega bo'ldi.

1994-yilda Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi tomonidan ilk bor tashkil etilgan "Xalq ijodiyoti" festivali markaz faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi sifatida tarixga kirdi. Mazkur festival O'zbekiston mustaqilligining uch yilligiga bag'ishlanib, har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan an'anaga asos soldi. Ushbu tadbirda arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys xalqlarining professional va badiiy havaskorlik jamoalarining san'atkorlari o'z ijod namunalari bilan ishtirok etib, xalqning katta qiziqishiga sazovor bo'ldilar.

Har bir Madaniyat Markazining festivali chinakam milliy bayramga aylanib, o'sha millatning porloq kelajagining kafolati bo'lib xizmat qildi. Ushbu festivallar, shuningdek, har bir millat vakilining yashab turgan zamini ular uchun begona emasligini, aksincha, ularning ushbu yurt, ushbu tuproq taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmat qildi. Festival doirasida namoyish etilgan rang-barang madaniyat va san'at namunalari xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik rishtalarini yanada mustahkamladi.

Institutsional rivojlanish davrida milliy madaniy markazlar tarmog'i shiddat bilan kengaydi. "1992-yilda faoliyat yuritayotgan 10 ta milliy madaniy markazning soni 1995-yilga kelib 72 taga etdi. 2000-yillarga kelib esa ularning soni 100 dan oshib, mamlakatdagi turli etnik jamoalarni qamrab oldi. Ushbu markazlar turli millatlarning bebaho madaniyatini asrash va rivojlantirish, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda milliy qadriyatlarni yosh avlodga bezavol etkazishdek ezgu maqsadlarga faoliyat yuritishni boshladi"[6].

Bu davrda milliy madaniy markazlar milliy bayramlar, urf-odatlar va san'at turlarini keng namoyon etishga qaratilgan

ko'plab tadbirlarni muvaffaqiyatli o'tkazishni yo'lga qo'ydi. Milliy tillar va madaniyatni saqlash bo'yicha o'quv kurslari, folklor ansambllari va san'at jamoalari tashkil etildi, bu esa etnik jamoalarning ijtimoiy hayotini faollashtirdi.

Davlat tomonidan ko'rsatilgan e'tibor va qo'llab-quvvatlash milliy madaniy markazlarning moddiy va tashkiliy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Bu davrda markazlarning davlat muassasalari, ta'lim dargohlari va san'at tashkilotlari bilan samarali hamkorligi yo'lga qo'yildi, bu esa ularning jamiyatdagi ta'sirini yanada oshirdi va faoliyatiga yangicha sur'at bag'ishladi.

Ushbu davr milliy madaniy markazlarning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ularning moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy ta'sirining kengayishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda milliy madaniy markazlar mamlakatimizda madaniy xilma-xillikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim institut sifatida namoyon bo'ldi. Ular o'z vazifalarini samarali bajarish uchun huquqiy, moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlardan unumli foydalanib, milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazishdek sharaflilik ishga katta hissa qo'shdi. Milliy madaniy markazlarning bu davrdagi faoliyati O'zbekistonning madaniy hayotida yorqin iz qoldirdi.

3. Integrasiya va barqarorlik davri (2000–2017-yillar) – 2000-yillardan boshlab, milliy madaniy markazlar o'z faoliyatida yangi bosqichga o'tdi. Biz bu davrni integrasiya va barqarorlik davri deb nomladik. Sababi bu davr integrasiya va barqarorlikni ta'minlash jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda markazlarning asosiy vazifasi nafaqat milliy madaniyatlarni saqlash, balki ularni jamiyatning keng qatlamlari va xalqaro hamjamiyat bilan integrasiya qilishga yo'naltirildi. Milliy madaniy markazlar o'zining nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro darajadagi ahamiyatini namoyon etib, madaniy muloqotlarni mustahkamlash, millatlararo munosabatlarni yaxshilash va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Bu davrda milliy madaniy markazlar faoliyatida barqarorlikni ta'minlash va uni yangi darajaga ko'tarishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Markazlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ularning faoliyatini rag'batlantirish uchun davlat tomonidan maxsus grantlar ajratildi. Ushbu davrda milliy madaniy markazlar mamlakat miqyosida katta madaniy tadbirlarni tashkil qilishda faol ishtirok etdi. Masalan, milliy madaniyat kunlari, folklor festivallari, ko'rgazmalar va an'anaviy san'at jamoalari konsertlari orqali turli millatlarning madaniy boyliklari keng ommaga tanishtirildi. Bu tadbirlar millatlararo hamjihatlik va madaniy hamkorlik muhitini yanada mustahkamladi.

Shuningdek, 2000-yillarda milliy madaniy markazlar mintaqaviy va xalqaro darajadagi madaniy aloqalarda o'z faolligini kuchaytirdi. Turli mamlakatlardagi turdosh markazlar bilan hamkorlik o'rnatildi, ular o'rtasida qo'shma madaniy tadbirlar o'tkazildi. Milliy madaniy markazlar o'z madaniyatini xalqaro festivallar va ko'rgazmalar orqali namoyish etish imkoniga ega bo'ldi. Bunday jarayonlar orqali O'zbekistondagi etnik guruhlarining madaniy boyliklari xalqaro darajada tan olina boshladi. Shu bilan birga, markazlar etnik jamoalarning madaniyatini ommalashtirish orqali mamlakatning madaniy diplomatiyasida muhim vazifalarni bajardi.

Integrasiya va barqarorlik davri milliy madaniy markazlarning nafaqat milliy darajadagi, balki xalqaro maydondagi ahamiyatini oshirish davri bo'ldi. Ular o'z faoliyati orqali madaniy muloqotlarni rivojlantirib, milliy va xalqaro darajada madaniy hamjihatlikni mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. Shu bilan birga, markazlar jamiyatda yoshlarni milliy madaniyatga jalb qilish, madaniy boyliklarni

asrash va ularni kelajak avlodga etkazishda muhim rol o'ynadi. Ushbu davrda milliy madaniy markazlar mamlakatning madaniy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida strategik institut sifatida o'zini namoyon etdi.

4. Innovasion rivojlanish va global hamkorlik davri – 2017-yildan boshlab O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning rivojlanishi yangi bosqichga o'tdi, bu bosqich zamonaviy innovasion yechimlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro madaniy hamkorlikni yanada kengaytirish bilan xarakterlanadi. Millatlararo munosabatlar va madaniy almashinuvni rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosati mamlakatda madaniy xilma-xillikni asrash va rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochdi. Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalar sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari"[7] konsepsiyasining qabul qilinishi milliy madaniy markazlarning faoliyatini yangi darajaga olib chiqdi. Ushbu konsepsiya markazlarning moddiy va tashkiliy quvvatini mustahkamlashga, ularning zamonaviy jamiyat talablariga moslashishiga xizmat qildi.

2017-yildan e'tiboran O'zbekistonda milliy madaniy markazlar faoliyatining transformasiyasi kuzatilib, bu sifat jihatidan yangi taraqqiyot bosqichini ifodalaydi. Ushbu davr milliy madaniy markazlarning institutsional salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining jadallashuvi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan qabul qilingan qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar, milliy madaniy markazlarning huquqiy maqomini legitimlashtirish, ularning funksional vazifalarini diversifikatsiyalash, shuningdek, faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar. Xususan, 2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori milliy madaniy markazlarning rivojlanish traektoriyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi[8].

2017-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalar sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi konsepsiya milliy madaniy markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, markazlar millatlararo totuvlikni ta'minlash, turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularning huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etmoqda.

Innovasion rivojlanish davrida milliy madaniy markazlar o'z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalana boshladi. Markazlar uchun maxsus veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va elektron tadbir platformalari orqali keng jamoatchilik bilan aloqa yo'lga qo'yildi. Milliy madaniyatni ommalashtirish va xalqaro auditoriyaga tanitish uchun onlayn tadbirlar, virtual ko'rgazmalar va vebinarlar tashkil etildi.[9] Pandemiya sharoitida bu yondashuv nafaqat markazlarning faoliyatini davom ettirish, balki ularning ta'sir doirasini kengaytirish imkoniyatini yaratdi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish milliy madaniy markazlarning xalqaro madaniy maydonga chiqishiga yordam berdi va ularning faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirdi.

Xulosa va takliflar. Milliy madaniy markazlar yoshlarni milliy madaniyatga jalb qilishda ham muhim qadamlarni tashladi. Milliy tillar, an'anaviy san'at va folklorini

o'rganish bo'yicha maxsus dasturlar yosh avlodni o'ziga jalb etib, ularni milliy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Shu bilan birga, markazlarda zamonaviy san'at va madaniyatning yangi yo'nalishlarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi, bu yosh ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Yoshlar faoliyatidagi bunday integratsiya markazlarning kelajak avlodga madaniy boyliklarni etkazish vazifasini yanada mustahkamladi.

Ushbu davrda markazlarning moddiy-texnik bazasi yanada yaxshilandi. Davlat tomonidan markazlarning infratuzilmasini mustahkamlash, ularni zamonaviy jihozlar va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha ko'mak ko'rsatildi. Shuningdek, milliy madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun yangi madaniy inshootlar qurildi yoki mavjudlari rekonstruksiya qilindi. Bu chora-tadbirlar markazlar faoliyatini yanada samarali tashkil qilish imkoniyatini yaratdi va ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini oshirdi.

2017-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrda milliy madaniy markazlar nafaqat o'z faoliyatini zamonaviylashtirishga, balki xalqaro madaniy maydonda o'z o'rnini mustahkamlashga ham erishdi. Innovasion yechimlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish va xalqaro hamkorlik yo'nalishidagi ilg'or tashabbuslar markazlarning ahamiyatini yanada oshirib, ularni zamonaviy madaniy muloqotning ajralmas qismiga aylantirdi. Milliy madaniy markazlar bugungi kunda madaniy xilma-xillikni asrash, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va yosh avlodni milliy qadriyatlariga yaqinlashtirishda muhim rol o'ynamoqda.[10] Ular nafaqat madaniy merosni saqlash, balki kelajakka yo'naltirilgan strategik faoliyat orqali jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shishda davom etmoqda.

Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning rivojlanishi jamiyatning madaniy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda to'rt bosqichda kechdi.

Dastlabki bosqichda (1980-yillar oxiri – 1992-yil) markazlar ko'ngilli tashkilotlar sifatida shakllandi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Keyingi bosqichda (1992-yildan) davlat e'tibori kuchayib, huquqiy asoslar mustahkamlandi va moliyalashtirish boshlandi. 2000-yildan 2017-yilgacha bo'lgan uchinchi bosqichda mintaqaviy va xalqaro hamkorlik rivojlandi, ammo axborot texnologiyalaridan foydalanish cheklanganligi sababli an'anaviy usullar ustuvor bo'ldi. To'rtinchi bosqich (2017-yildan hozirgi kungacha) zamonaviy texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, huquqiy va moliyaviy asoslarning mustahkamlanishi, yoshlarga yo'naltirilgan loyihalar va xalqaro tadbirlardagi faol ishtirok markazlarning nufuzini oshirdi.

Har bir bosqichda milliy madaniy markazlarning o'rni va ahamiyati ortgan bo'lsa-da, to'rtinchi bosqichda ularning faoliyati zamonaviy jamiyat talablariga moslashgan holda yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekistonda milliy madaniy markazlar nafaqat milliy madaniyatni asrab-avaylash, balki uni xalqaro miqyosda ommalashtirish, yosh avlodni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdek muhim vazifalarni ham samarali bajarib kelmoqda. Shu tariqa, O'zMMMLari o'z rivojlanish yo'lida madaniy, ijtimoiy va xalqaro aloqalarning muhim vositasiga aylanib, mamlakatimizning madaniy xilma-xilligini ta'minlashga beqiyos hissa qo'shmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И.Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.: "Ўзбекистон". 1999. 7-том. Б. 143-144.
2. Раҳмонов Д.Н. Миллий муносабатлар ва уларнинг сиёсий-ҳукукий бошқарилиши (Ҳозирги замон амалиётидан) - Т.: "Фан", 1990;

3. Карабаев У.Х. Традиционное народное творчество: проблемы возрождения и развития. – Т.: “Фан”, 1991; Наджимов Г.Н. Народные традиции и культура. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992;
4. Джунусов М.С. Национализм в различных измерениях. -Алма-ата, 1990.
5. Наджимов Г.Н. Народные традиции и культура. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
6. Миллий маданий марказлар. Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Алоҳида муҳим ижтимоий, маданий ва тарихий аҳамиятга эга бўлган объектларни қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш дирекцияси сайти: URL: <https://dkm.gov.uz/uz/milliy-madaniy-markazlar> (murojaat sanasi: 21.03.2025)
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 19.05.2017 йилдаги ПФ-5046-сон// <https://lex.uz/docs/3210345>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4038-сонли қарори: "Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида". Қабул қилинган сана: 2018-йил 28-ноябрь.
9. Qomus.info: "Milliy madaniy markazlar" ensiklopedik ma'lumot. URL: qomus.info (murojaat sanasi: 21.03.2025)
10. Ташматов Ў. Ўзбекистон халқининг миллий турфа хиллик борасидаги ҳуқуқлари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2013. – №1. – Б. 32.